



POWER POINT DASTURI VA USHBU DASTURDAN INGILIZ TILINI O'QITISH JARAYONIDA FOYDALANISH.

Olimjonova Gulnoza No'monjon qizi

Guliston davlat universiteti Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 2- bosqich talabasi.

Annotatsiya: Maqola Power Point dasturini ingiliz tilini o'qitish jarayonida foydalanish, bu dasturdan foydalanish orqali yuzaga kelayotgan ijobiy natijalar bilan bиргаликда salbiy jihatlarni namoyon etadi. Ijobiy jihatlarni o'quvchi va o'quvchilarning dars jarayoniga oldindan tayyor bo'lislari, o'qituvchi ingiliz tili darsini sifatli va samarali tarzda o'tishi, mavzularni takrorlashga vaqtining ortib qolishida namoyon bo'ladi. Salbiy jihatlar esa, asosan, kompyuter savodxoniligi yetishmasligi, bitta sahifaning ustida juda ham ko'p matnning bo'lishi , natijada esa bu sahifa o'quvchilarga ko'rishda qiyinchilik tug'dirishi va boshqa bir qator muammolarning keltirib chiqaradi.

Kalit so'zlar: Texnologiyalar, Power Point dasturi, grafik, kompyuter savodxoniligi, ingiliz tili.

Bugungi dunyo texnologiyalar asosiga asoslangan bo'lib, texnologiyalarni hayotimizning har bir tarmoqlarida ko'rishingiz mumkin. Ular bir qator tarmoqlarga o'z ta'sirlarini o'tkazib, o'sha soha rivojida yetarlicha turki berib kelmoqda. Bugungi kundagi xorijiy tillarni o'qitish tizimi , xususan , ingiliz tilini o'qitish jarayonida yuqorida aytib o'tilgan texnologiyalar o'z yordamlarini taqdim etishmoqda. Bularni esa biz kompyuter, noutbuk, elektron do'ska, turli xil ilova yoki dasturlarida to'laqonliq namoyon bo'lishini aytib o'tsak bo'ladi. Power Point dasturi esa yuqorida ta'kidlab o'tilgan. izohlarga misol tariqasida taqdim etsak bo'ladi.

Power Point - " Microsoft Office" programmasini o'z ichiga qamrab olgan bo'lib , o'quvchi va o'qituvchilarining salohiyatlari va bilim darajalarini rivojlantirishga ishlataladi. Uning asosiy xususiyatlari: presentatsiyalar yaratish, rasmlar qo'shish, tahrirlay olish va boshqa bir qator xususiyatlardir.

Power Point o'quv tizimida bir qator tub burilishlarning asosiy sabablaridan biridir. Bu dastur orqali ingiliz tili o'qituvchilarini darslarga oldindan tayyorlanib kelish va o'quvchilar oldindan mavzu haqida asosiy ma'lumotlarni o'qib o'rganish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Natijada, o'quvchilarda mustaqil o'qib o'rganish ko'nikmasi paydo bo'ladi.

Power Point dasturidan foydalaniб ingiliz tilidagi darslarni olib borishda ham foydali , shu bilan bирgalikda, salbiy jihatlari mavjuddir.

Power Point dasturidan foydalaniб ingiliz tili darslarni tashkil etishning salbiy jihatlari:

- bitta sahifada juda ham ko'p miqdorda matnlarning bo'lishi;
- sahifalar yoki rasmlarning sifatli bo'lmasligi;
- tezlik bilan sahifalarining o'tishi sababli, o'quvchilarda ma'lum bir mavzu yuzasida noaniqlik kelib chiqishi;
- turli xil grafiklardan foydalanuvchining bilim saviyasi asosida yaratilishi.

Power Point dasturidan foydalanishda va ingiliz tili darslarida o'quvchilarga taqdim etishda yuqoridagi kabi turli xil salbiy jihatlarni ko'rishingiz mumkin. Bu salbiy jihatlar. esa o'quvchilar ongida ma'lum bir mavzuda ma'lumotlarni to'liq tushunmaslik kabi holatlarni keltirib chiqarishga sabab bo'ladi.

Ushbu dasturdan foydalanishning foydali jihatlariga yuzlanadigan bo'lsak, ular quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

- dars jarayoniga oldindan ma'lum bir mavzudagi ma'lumotlarni to'plash orqali tayyorgarlik ko'rish;
- vaqtdan unumli foydalanish;
- o'quvchilar ko'z xotirasi orqali o'rganishlariga imkon yaratish.

Yuqorida nazarda turtilgan barcha jihatlari ta'kidlab o'tganimizdek , Power Pointning foydalanish foydali jihatlarini qamrab oladi va asosan bu o'quvchilarning mustaqil o'rganish qobilyatlarining shakillanishi, vaqtdan samarali tarzda foydala olish imkoniyati, ko'z xotiradan foydalana olish kabi jabhalarda namoyon bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Power Point dasturini ingiliz tilini o'qitish jarayonida foydalanish bir qator afzalliklari bilan, kamchiliklarini ham namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. K.P.Katel " Use of Power Point presentations in English Language Teaching Classrooms in Master level: perspectives and issues "(2021).
2. M.Hashemi; M.Azizinezhad; M.Farokhi: " Power Point as an innovative tool for teaching and learning modern classes ".
3. Pham Ngos Son: " The effectiveness of using Power Point in teaching English: A survey on Hufi students ' performance ".